

## **“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish haqidagi yillik HISOBOT**

**2025-yil 1-yanvar holatiga**

### **I. Umumiy ma’lumot**

“O‘zmetkombinat” Aksiyadorlik jamiyatining aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti” talablari asosida joriy hisobot davrida jami 6 ta murojaat kelib tushgan.

### **II. Ko‘rib chiqish natijalari**

Shulardan birinchisi 2024-yil 16-iyul’ kuni Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani, Batosh MFY, Anor ko‘chasi 13-uyda yashovchi fuqaro R.T. Doliyevning “O‘zmetkombinat” AJ Ikkilamchiqorametallar departamenti hududiy filiali “Qashqadaryo IQM filiali” rahbari Farmonov Navro‘z Farmonovich va boshqalarning noqonuniy xatti – harakatlaridan norozi bo‘lib yo‘llagan 2m/292 va 2/293-sonli murojaatlari Hujjatlar tahlili va ijrosini ta’minalash, murojaatlar bilan ishlash boshqarmsiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Qashqadaryo viloyat boshqarmasidan kelib tushgan. Ushbu murojaatlarni o‘rganish maqsadida Kombinat Boshqaruv Raisi – Bosh direktorining 2024-yil 19-iyul’dagi 20-sonli xati asosida Komplayens – xizmati xodimlari tomonidan Qashqadaryo viloyatiga xizmat safari uyuştirildi va keltirilgan ma’lumotlar xolis va shaffof o‘rganib chiqildi. Mazkur o‘rganish ishlari davomida murojaatchi R.T.Doliyev bilan suhbat uyuştirildi, suhbat davomida Doliyev Rivojiddin To‘raqul o‘g‘li o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Davlat Xavfsizlik xizmati Qashqadaryo viloyat Boshqarmasi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy Jinoyatlarga Qarshi Kurashish Departamenti Qashqadaryo viloyat Boshqarmasiga yo‘llagan murojaatlarini jaxl ustida yozganligi, qilmishidan pushaymonligi va unga hech qanday ruhiy bosim o‘tkazilmaganligini aytib, o‘z murojaatlarini e’tiborsiz qoldirilishini so‘rab yozma shaklda tushuntirish xati yozib berdi, shuningdek, fuqaro R.T.Doliyevning murojaati asosida “Ikkilamchiqorametallar” xavfsizligini ta’minalash bo‘limi yetakchi mutaxassis A.S. Azgarov va “Qashqadaryo IQM” filiali rahbari N.F.Farmonovlardan ham tushuntirish xatlari olindi. O‘tkazilgan o‘rganish ishlari natijasida “Qashqadaryo IQM” rahbari N.F.Farmonov va boshqalarning xatti – harakatları to‘g‘risidagi fuqaro R.T.Doliyevning murojaatlarida keltirilgan ma’lumotlar tasdiqlanmadı.

Mazkur murojaatlarni o‘rganish ishlari natijasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy Jinoyatlarga Qarshi Kurashish Departamenti Qashqadaryo viloyat Boshqarmasiga 2024-yil 19-avgust kuni **01/01-01-01/2339 – sonli** javob xati yuborildi.

2024-yil 21-avgust kuni Komplayens – xizmatining korruptsiyaga oid xabarlarni qabul qilish aloqa kanali ishonch raqami +998 70 214 19 17 orqali Navoiy viloyati, Zarafshon shahri, 13-daha, 76-uy, 44-xonadonda istiqomat qiluvchi fuqaro D. Sayfiyev Ikkilamchiqorametallar departamenti Navoiy IQM filiali “Zarafshon” uchastkasi ustasi Sharipov Nurali tomonidan o‘zi rahbarlik qilayotgan uchastkada ko‘plab qoidabuzarliklar amalga oshirayotganligi to‘g‘risida murojaat qilgan. Ushbu murojaatni o‘rganish maqsadida Boshqaruv Raisi – Bosh direktorining 2024-yil 22-avgust kunidagi 43-sonli xati asosida Komplayens – xizmati xodimlari tomonidan Navoiy viloyatiga xizmat safari uyuştirildi. O‘rganish ishlari davomida murojaatchi D.Sayfiyevdan “Navoiy” IQM filiali “Zarafshon” uchastkasida sodir etilgan ko‘plab qoidabuzarliklar haqida ariza bilan murojaat qilgan va qoidabuzarliklar aks etgan videolavhalarni taqdim qilgan.

Ushbu holat bo‘yicha “O‘zmetkombiant AJ xodimlariga nisbatan Korrupsiyaviy holatlar, manfaatlar to‘qnashuvi va odob – axloq qoidalarini buzganlik uchun Komplayens - xizmati tomonidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish bo‘yicha Reglament” talablari asosida hamda Boshqaruvi Raisi – Bosh Direktorining 2024-yil 5-sentyabr’dagi 1215-ich–sonli buyrug‘iga asosan xizmat tekshiruvi o‘tkazildi. Mazkur xizmat tekshiruvi davomida haqiqatdan ham “Navoiy” IQM filiali “Zarafshon” uchastkasida to‘planadigan metal parchalari uyumlari ichidan turli xil metal parchalari, po‘lat quvurlar va tovar moddiy boyliklari olib chiqilganligi hamda “Zarafshon” uchastkasi avtotarozisidan Kombinatga tegishli bo‘lmagan yuk avtomashinalari tomonidan foydalanganlik holatlari mavjudligi aniqlandi. O‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalari yuzasidan to‘plangan hujjatlar qonuniy baho berilishi uchun Navoiy viloyati Zarafshon shahri IIB ga 2024-yil 30-sentyabr’ kuni **/26-sonli xati** bilan yuborildi.

Xizmat tekshiruvi natijasida o‘z lavozim yo‘riqnomalarini lozim darajada bajarmaganligi, Kombinat xodimlari uchun ichki mehnat tartib qoidalarini va Lavoizm yo‘riqnomalari talablarini buzganliklari uchun “O‘zmetkombinat” AJ ning 2024-yil 27-sentyabr kunidagi 262i buyrug‘i bilan “Zarafshon” uchastka qorovullari B.Sh. Abdullayev, I.M. Barotov., N.T.Sobirov., “Zarafshon” uchastkasi pirotexnik dozimetristi E.B. Norov., pirotexnik dozimetrist A.O.Temirov., tarozibon D.N.Ergashev., saralovchi O.T.Kenjayev., yuk avtomobil haydovchisi R.R.Xoliqov., uchastka ustasi N.T.Sharipovlar intizomiy jazoga tortilishgan.

Murojaatchi Fuqaro D.Sayfiyevga o‘rganish ishlari va xizmat tekshiruvi o‘tkazilganligi to‘g‘risida 01/01-01-01/2465-sonli va 01/01-01-01/2783-sonli javob xatlarii yuborilgan.

2024-yil 19, 26 va 30-sentyabr kunlari Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani, Qovchin MFY da yashovchi fuqaro S.Abdullayevning “O‘zmetkombinat” AJ Ikkalamchiqorametollar departamenti hududiy bo‘linmasi “Qashqadaryo IQM filiali” rahbari Farmonov Navro‘z Farmonovich va boshqalarning noqonuniy xatti – harakatlaridan norozi bo‘lib yo‘llagan 1/4852-sonli, 2m/355-sonli va 1m/97-sonli murojaatlari Hujjatlar tahlili va ijrosini ta’minalash, murojaatlар bilan ishslash boshqarmasiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Qashqadaryo viloyat boshqarmasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidan kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning barchasi fuqaro S.Abdullayevga tegishli ekanligi va mazmunan bir xilligi hamda “O‘zmetkombinat” AJ Qashqadaryo IQM filiali rahbari N.F.Farmonovga nisbatan ekanligini inobatga olib Komplayens – xizmatining 58 va 63-farmoyishlari bilan qo‘sib olib borishga qaror qilindi va “O‘zmetkombinat” AJ da xizmat tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” gi Nizomiga hamda Korporativ xavfsizlik va Resurslarni himoya qilish departamenti direktorining 2024-yil 30-sentyabr kunidagi 5f-sonli farmoyishiga asosan xizmat tekshiruvi o‘tkazildi.

Mazkur murojaatlар bo‘yicha o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi davomida to‘plangan hujjatlar huquqiy baho berilishi uchun Olmaliq shahar Ixtisoslashtrilgan prokuraturasiga 2024-yil 4-oktyabr’ kuni **/28 – sonli** xati yuborildi. Mazkur murojaatlarni o‘rganish ishlari natijasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy Jinoyatlarga Qarshi Kurashish Departamenti Qashqadaryo viloyat Boshqarmasiga 2024-yil 4-oktyabr kuni **/28 – sonli** javob xati yuborildi.

Barcha murojaatchilarga ularning arizalarini ko‘rib chiqish natijasi to‘g‘risida javob xatlari yuborilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, barcha murojaatlар bo‘yicha aniqlangan holatlarga huquqiy baho berilayotganligini ma’lum qilamiz.

### **III. Minimallashtirish choralar**

Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari ishchi – xodimlari huquqiy ongini oshirish va korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi kabi illatlarga murosasizlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida yozma huquqiy targ‘ibot materiallari, audiorolik va videoroliklar, qo‘llanmalar va iilyustrativ tarqatma materiallari ishlab chiqilmoqda va Kombinat rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarida kuzatuvchilar e’tiboriga taqdim qilinmoqda.

Kombinat xodimlarida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida Kombinat Boshqaruv Raisi – Bosh Direktor R.X..Pirmatov va Boshqaruv Raisning 1-o‘rnibosari–Ijrochi direktori R.S.Garayevning Kombinat rasmiy “Metallurg Minbari” va “Za Metall” gazetalarida e‘lon qilingan murojaatlari 1148-i/ch va 1251-i/ch sonli buyruqlar asosida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida majlislar va ishlab chiqarish yig‘ilishlarida barcha xodimlariga yetkazildi.

Kombinatning “Metallurg Minbari” va “Za Metall” rasmiy gazetalarida har oyda Kombinat Boshqaruv Raisi – Bosh direktori va ularning o‘rnibosarlari tomonidan “Manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya qarshi kurashish” mavzularida maqolalar nash etilmoqda.

Xodimlar malakasini baholash, o‘qitish va rivojlantirish boshqarmasida 2024-yilning hisobot davrida Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linma va hududiy filiallari xodimlari ishtirokida 11 ta umumiyligi va maxsus oq‘uv kursi seminarlari va 42 marotaba Davra suhbatlari tashkil etilgan. Barcha tinglovchilarga axborot materiallari tarqatilgan.

Korrupsiyaviy xavf xatarlarga moyilligi yuqori bo‘lgan lavozimda ishlovchi Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparati xodimlari uchun “Smart Management” MChJ o‘quv markazini taklif qilgan holda “ISO:37001 korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruvi tizimi ichki auditori” mavzusida Maxsus o‘quv kursi tashkil etildi.

Kombinat xodimlari o‘rtasida keng miqyosda tizimli ravishda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi sohasida targibot va tashviqot ishlari olib borish orqali ishchi xodimlar huquqiy ongini oshirish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” va “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish siyosat” lari asosida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar yo‘nalishida Komplayens xizmati Matbuot xizmati bilan hamkorlikda **14 ta** audioroliklar va **5 ta** videorolik, shuningdek, **12 ta** yozma targ‘ibot materiallari ishlab chiqilib, Kombinat rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarda xodimlar, hamkorlar, kontragentlar va barcha kuzatuvchilar e’tiboriga havola etilmoqda.

Kombinat rasmiy “Metallurg minbari” gazetasi oylik nashrlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish mavzularida Kombinat boshqaruv raisi o‘rnibosarlarining **12 maqolasi** chop etilib, kuzatuvchilar hukmiga havola etildi.

2024-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid **5 ta** “Finlyandiya tajribasi”, “Shvetsiya tajribasi”, “Singapur tajribasi”, “Xalqaro tajriba” va “Poraxo ‘rlik predmetiga oid ma’lumotlar” o‘quv qo‘llanmalari hamda “Manfaatlar to‘qnashuvi sohasiga oid Eslatma” ishlab chiqildi va Kombinat rasmiy veb saytiga joylashtirildi.

Kombinatda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish va chek qo‘yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart - sharoitlarni bartaraf etish maqsadida 2024-yil Kombinat 9 direksiyasi va 89 ta funksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi hujjalari o‘rganilib korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari hamda markaziy apparatidagi barcha lavozimlar tahlil qilinib, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar asosida “O‘zmetkombinat” AJ ning korupsiyaviy xavf xatarlar xaritasi tuzildi. Ushbu xaritaga ko‘ra, Kombinatning **59 ta** lavozimlarda korrupsiya xavfi “yuqori”,

18 tasida “o‘rta” va **7 tasida** “past” ekanligi aniqlanib, Kombinat korruption xavf xatarlar xaritasi asosida Kombinat, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaviy holatlarni minimallashtirish maqsadida **49 banddan** iborat “Kombinat, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi” ishlab chiqildi. Joriy yilning yakuniga qadar Kombinat, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturida belgilangan chora tadbirlarning to‘liq va sifatli bajarilishi ta’minlandi.

“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv Kengashi  
huzuridagi Komplayens – xizmati boshlig‘i

T.T.Xojiyev.